

MAQSUD SHAYXZODA JAHON ADABIYOTI TARJIMONI VA BOY MA'NAVIY MEROSI

Toshkent davlat transport universiteti talabasi
Azamatov Abduazim Abdusaid o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining zabardast vakili Maqsud Shayxzodaning tarjimonlik mahorati va u qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosi haqida. Adibning V. Shekspir, A.S. Pushkin, M. Lermontov kabi jahon klassiklari asarlarini o'zbek tiliga o'girishdagi o'ziga xos uslubi, shuningdek, navoiyshunoslik fani rivojiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Maqolada Shayxzoda merosi "ma'naviy meros" va "intellektual ko'priq" tushunchalari orqali talaba nigohida yoritilgan bo'lib, u gumanitar va texnik soha vakillari uchun ham metodologik ahamiyatga ega material hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, tarjima san'ati, Alisher Navoiy, boy meros, "Yevgeniy Onegin", "Gamlet", ma'naviy ko'priq, tizimli tahlil, talaba nuqtai nazar, adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti.

Аннотация: В данной статье рассматриваются переводческое мастерство выдающегося представителя узбекской литературы XX века Максуда Шайхзоды и его богатое научно-духовное наследие. Анализируется своеобразный стиль писателя при переводе произведений мировых классиков, таких как В. Шекспир, А.С. Пушкин, М. Лермонтов, на узбекский язык, а также его вклад в развитие навоиеведения. В статье наследие Шайхзоды освещается с точки зрения студента через понятия «духовное наследие» и «интеллектуальный мост», что делает материал методологически значимым как для представителей гуманитарных, так и технических направлений.

Ключевые слова: Максуд Шайхзода, искусство перевода, Алишер Навои, богатое наследие, «Евгений Онегин», «Гамлет», духовный мост, системный анализ, студенческая точка зрения, литературоведение, мировая литература.

Abstract: This article examines the translation mastery and rich scientific and spiritual heritage of Maqsud Shayxzoda, a prominent representative of 20th-century Uzbek literature. It analyzes the writer's distinctive approach to translating the works of world classics such as W. Shakespeare, A.S. Pushkin, and M. Lermontov into Uzbek, as well as his contribution to the development of Navoi studies. The article presents Shayxzoda's legacy through the concepts of "spiritual heritage" and "intellectual bridge" from a student's perspective, making it a methodologically valuable resource for both humanities and technical fields.

Keywords: Maqsud Shayxzoda, translation art, Alisher Navoi, rich heritage, "Eugene Onegin," "Hamlet," spiritual bridge, systematic analysis, student perspective, literary studies, world literature.

O'zbek adabiyoti tarixida Maqsud Shayxzoda shoir, tarjimon yozdan asarlari emasa balki insoni fazilatlar bilan ham ardoqlanib kelinadigan shoirlardan desak adashmagan bo'laman.

Men, Toshkent davlat transport universiteti talabasi sifatida, adibning ijodiy merosini o'rganar ekanman, uni millatlararo ma'naviy ko'priklarni qurgan buyuk me'morga qiyoslayman. Zero, transport tizimida ko'priklar va magistral yo'llar hududlarni bog'lab, uzluksizlikni ta'minlaganidek, Shayxzoda ham o'z tarjimalari va ilmiy tadqiqotlari orqali o'zbek kitobxonini jahon madaniyati bilan chambarchas bog'ladi. Uning qoldirgan boy ma'naviy merosi bugungi kun yoshlari uchun haqiqiy intellektual po'ydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Shayxzoda mohir tarjimon sifatida Ezop masallaridan tortib, Shekspirning murakkab tragediyalarigacha, Pushkinning nafis she'riyatidan tortib, Nozim Hikmatning isyonkor satrlarigacha bo'lgan yuzlab asarlarni o'zbek tiliga mahorat bilan o'girdi. Uning Vilyam Shekspir qalamiga mansub "Gamlet" va "Qirol Lir" asarlarini o'zbekchalashtirishi shunchaki so'z o'girish emas, balki tilimizning falsafiy quvvatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish edi. Shayxzoda Shekspirning murakkab metaforalarini, og'ir dramatik yukini zarracha yo'qotmasdan o'zbek auditoriyasiga yetkazdi. Shuningdek, Aleksandr Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini o'girishda u o'ziga xos "she'riy muhandislik" namunasini ko'rsatdi. Ruscha she'riy qurilmani, uning "onegincha band" (oneiginskaya strofa) deb ataluvchi murakkab tuzilishini o'zbekcha qofiya va vazn qoliplariga zarracha ma'no yo'qotishsiz joylay olishi adibning naqadar buyuk so'z zargari ekanligidan dalolat beradi. Bu jarayonni men "ma'naviy logistika" deb atayman, chunki u jahon tafakkur durdonalarini o'zbek tili "vagonlari"ga yuklab, bizning qalblarimizga bexato yetkazib berdi.

Adibning boy merosi faqat badiiy tarjimalar bilan cheklanib qolmaydi. Maqsud Shayxzoda badiiy asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid sohasida ham o'ta samarali ijod qilgan ulkan ilmiy quvvat egasidir. Uning olimlik salohiyati shunchalik keng ediki, u har bir tadqiqotiga aniq fanlar kabi mas'uliyat bilan yondashardi. Ayniqsa, uning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodi va faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan jiddiy tadqiqotlari navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Hazrat Navoiyning murakkab falsafiy olamini, "Xamsa" dostonlaridagi yashirin ma'no qatlamlarini xuddi mahoratli muhandis kabi "tizimli tahlil" qilib, xalqimizga sodda va teran tilda yetkazib berdi. Shayxzoda "Navoiyning lirik mahorati" kabi asarlari bilan buyuk mutafakkirning shoirlik kegn ma'noda ochib berdi albata.

Zabardast olimimiz o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon kabi siymolari, hatto xalq og'zaki ijodining ajoyib vakili Fozil shoir haqida ham qimmatli ilmiy asarlar yaratgan. Shayxzoda jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, A.N. Ostrovskiy, T.G. Shevchenko, A.P. Chexov kabi namoyandalariga bag'ishlangan asarlar yaratib, o'zbek adabiyotshunosligi ufqlarini kengaytirdi. U Nizomiyni "Xamsa"si bilan Navoiyning "Xamsa"si o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni, tarjima emas, balki "ijodiy musobaqa" (nazira) ekanini ilmiy asoslab berdi. Bu esa adabiyotlararo integratsiya masalalarini o'rganishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Shayxzodaning tarjimonlik faoliyati shunchaki xobbi emas, balki o'zbek tili "vaznini" oshirishga qaratilgan strategik harakat edi. U M.Y. Lermontovning lirikasi, Mirza Fatali Oxundovning dramalari, Ezopning qadimiy hikmatlari, Esxilning vajohatli tragediyalari, Gyote va Bayronning isyonkor ruhini o'zbek tiliga shunday singdirdiki, natijada o'zbek tili jahonning

eng murakkab asarlarini ko'tara oladigan qudratli "platforma"ga aylandi. Nozim Hikmat she'riyatidagi yangicha shakllarni tarjima qilish orqali esa o'zbek she'riyatiga yangi qofiya tizimlari va ritmlar kirib kelishiga yo'l ochdi.

Men uchun Shayxzoda siymosi – bu bir butun ma'naviy ekotizimdir. Uning har bir asari va tarjimasi ortida inson qadrini ulug'lash, uni koinot gultoji deb bilish falsafasi yotadi. U o'zining tarjimonlik mahorati va ilmiy tadqiqotlari bilan o'zbek millatining jahon adabiyotiga bo'lgan qiziqishini yanada o'rnini yanada mustahkamladi. Biz yoshlar uchun uning sadoqati, mehnatsevarligi va ona tilimizni dunyo tillari orasida yuksaltirishga bo'lgan intilishi eng yuksak hayotiy darsdir. Shayxzoda qurgan bu ma'naviy relslar bo'ylab harakatlanar ekanmiz, biz nafaqat o'tmishimizni anglaymiz, balki yuksak kelajak sari ishonch bilan qadam tashlaymiz. U qoldirgan merosni asrash va kelajak avlodga yetkazish har birimizning nafaqat ilmiy, balki muqaddas insoniy burchimizdir. Maqola so'ngida shuni aytish joizki, Shayxzoda merosi bizga milliy g'oyani saqlab qolgan holda jahon madaniyati bilan qanday uyg'unlashish kerakligini o'rgatuvchi eng yirik darslikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayxzoda M. Tanlangan asarlar. I-VI jildlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1969-1974.
2. Karimov N. Maqsud Shayxzoda: Hayoti va ijodiy yo'li "Ma'rifiy-biografik roman". – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Pushkin A.S. Yevgeniy Onegin M. Shayxzoda tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2003.
4. Shekspir V. Tragediyalar "M. Shayxzoda tarjimalari". – Toshkent: G'afur G'ulom, 1980.
5. Qahhorova K. Chorak asr hamnafas. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1987.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. 4-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
7. Abdullayev S. Maqsud Shayxzoda tarjimonlik mahorati. – Toshkent, 2001.
8. Shayxzoda M. "G'azal mulking sultoni" Navoiy haqida maqolalar to'plami. – Toshkent, 1991.